



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
NAVOIY DAVLAT UNIVERSITETI



**"MAKTABGACHA TA'LIMNING KELAJAK
MODELI: TADQIQOTLAR,
LOYIHALAR VA AMALIY ISHLAR"**

MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA
MATERIALLARI TO'PLAMI
2025-YIL 2-MAY, NAVOIY

СБОРНИК МАТЕРИАЛОВ КОНФЕРЕНЦИИ
МЕЖДУНАРОДНОЙ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКОЙ
КОНФЕРЕНЦИИ

**"МОДЕЛЬ БУДУЩЕГО ДОШКОЛЬНОГО
ОБРАЗОВАНИЯ: ИССЛЕДОВАНИЯ,
ПРОЕКТЫ И ПРАКТИЧЕСКИЕ РАБОТЫ"**

2 МАЯ 2025 ГОДА НАВОИ

COLLECTION OF MATERIALS OF THE INTERNATIONAL
SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE ON THE TOPIC
**"THE FUTURE MODEL OF PRESCHOOL
EDUCATION: RESEARCH, PROJECTS
AND PRACTICAL WORKS"**

MAY 2, 2025 NAVOI



O‘ZBEKISTON RESPUBUKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRUGI
NAVOIY DAVLAT UNIVERSITETI

**“MAKTABGACHA TA’LIMNING KELAJAK MODELI:
TADQIQOTLAR, LOYIHALAR VA AMALIY ISHLAR”**

**MAVZUSIDAGI ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA
MATERIALLARI**

**“THE FUTURE MODEL OF PRESCHOOL EDUCATION:
RESEARCH, PROJECTS, AND PRACTICAL WORKS»**

**MATERIALS OF THE INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND
PRACTICAL CONFERENCE**

**“МОДЕЛЬ БУДУЩЕГО ДОШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ:
ИССЛЕДОВАНИЯ, ПРОЕКТЫ И ПРАКТИЧЕСКИЕ
РАБОТЫ”**

**МАТЕРИАЛЫ МЕЖДУНАРОДНОЙ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКОЙ
КОНФЕРЕНЦИИ**

I

Navoiy shahri
02. 05. 2025

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishiga qo'yilgan Davlat talablar(2018yil 4iyul)
2. G.R Toxtasinova, T.I. Ormonova (2005). Bolalarbogchasida intellectual
3. psixologik o'yinlar T.:(4-5)
4. Bolalar iqtidorini erta aniqlashning psixologik-pedagogik metodikalari 5. majmuasi (2010).
5. Абрамовских, Н. В. (2015). Педагогические технологии в дошкольном образовании: понятие и сущность. Концепт, (S17), 1-5.
6. Новикова, Г. П. (2016). Перспективы эффективного развития инновационной деятельности в дошкольной образовательной организации в системе непрерывного образования. In Инновационная деятельность в дошкольном образовании (pp. 11-23).
7. Шума, В. Н., & Котлова, С. И. (2016). Современные образовательные технологии как эффективное средство реализации стандарта дошкольного образования. Дошкольное образование: опыт, проблемы, перспективы развития, (1), 2225.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING IJODIY QOBILIYATLARNI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING SAMARADORLIGI

O'zbekiston. T.I. Urmonova
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
“Maktabgacha ta’lim” fakulteti o‘qituvchisi
O'zbekiston. D.Hayitmonbetova
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
“Maktabgacha ta’lim” fakulteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda ijodiy qobiliyatlarining o'ziga xos jihatlari, ularni rivojlantirish tamoyillari, yo'nalishlari hamda texnologiyalari tahlil qilinadi. Shuningdek, kvest o'yin texnologiyasini qo'llash orqali bolalarda ijodiy qobiliyat va ijodkorlikni rivojlantirish imkoniyatlari sharhlanadi.

Kalit so'zlar: maktabgacha yosh, ijodiy qobiliyat, ijodkorlik, kvest o'yin texnologiyasi, tamoyillari, yo'nalishlari, kvest topshiriqlari, ruhlanish.

Annotation: This article analyzes the peculiarities of creative abilities of preschool children, the principles, directions and technologies of their development. Also, the possibilities for the development of creative abilities and creativity in children are commented on by the application of Quest game technology.

Keywords: preschool age, creative abilities, creativity, Quest Game Technology, principles, directions, quest assignments, spiritualization.

Аннотация: В данной статье будут проанализированы особенности творческих способностей дошкольников, принципы, направления и технологии их развития. Также комментируются возможности развития творческих способностей и творческих способностей у детей с помощью технологии квестовой игры.

Ключевые слова: дошкольный возраст, творческие способности, креативность, технология квестовых игр, принципы, направления, квестовые задания, одухотворенность.

Yurtimizda maktabgacha ta'lim-tarbiya tizimini tubdan isloh qilishga e'tibor qaratilib, yosh avlodni jahon andozalari darajasida zamonaviy bilim egallashlari hamda ularning ma'naviy-axloqiy, mantiqiy tafakkuri va ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish, o'quv-tarbiya jarayonida ta'limning innovatsion shakl va usullarini qo'llash borasida bir qator yutuqlarga erishilmoqda.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda keng qo'llanilayotgan texnologiyalardan biri kvest texnologiyasidir.

Kvest - (inglizcha “QUEST” “muammo”, “izlanish”, “sarguzasht” degan ma'noni anglatadi) hikoya mazmuniga ega sarguzashtli interfaol o'yin (inglizcha “Adventure game”) uning ishtirokchilari belgilar orqali harakatlanib, topshiriqlarni topadi va bajaradi. Kvest o'yini-bu

bolalarning kognetiv qiziqishini va muammolarni ishtiyoq bilan hal qilish istagini faollashtirish hamda ijodiy imkoniyatlarini ochish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratadigan eng samarali va o'ziga xos ta'lim texnologiyadir.

Bolalarga ta'lim-tarbiya berishda Kvest texnologiyalari 1995 yildan keng qo'llanila boshladi. San-Diyegolik professor Berni Dodj o'quv jarayonida ma'lum qidiruv tizimidan foydalanishni taklif qilganidan so'ng, har birida oraliq bosqichlarni bosib o'tishda muammoning yechimini topish kerak boladigan o'yinli-sarguzashtli texnologiyadan keng foydalanila boshlandi. Maktabgacha talim tashkilotlarida yoki maktab yoshidagi bolalar uchun ishlab chiqilgan kvest texnologiyalari, kvest janridagi kompyuter oyinlari asosida yaratilgan. Umuman olganda, qidiruv texnikasi ushbu texnologiyaning asosi hisoblanadi.

Ma'lumki bolalar ta'lim jarayonini qiyin faoliyat deb qabul qilishadi. Bu ayniqsa, quruq materiallar, faktlar, oddiy hikoya qilish va so'zlab berishdangina iborat bo'lsa bola uchun zerikarli hisoblanadi. Bolalar rivojlanishning dastlabki bosqichida o'rganishga qiynaladilar. Tabiiyki, ular o'rganishdan ko'ra oddiy o'yinlarni afzal ko'rishadi. Bolalarni ta'limiy jarayonlariga qiziqtirish uchun o'yindan keng foydalanish zarur. Chunki, aynan shu o'ynlar orqali bolalarda berilgan muammoni yechish, yechimni topish uchun biror - bir shartni bajarish, shartni bajarish davomida ta'limiy masalalarni bajarish juda qiziqarli, zavqli kechadi. O'yindagi qahramonlar o'z navbatida bolalarning ruhiyatiga juda katta ta'sir qilishi va to'g'ri dunyoqarashni shakllantirishga xizmat qiladi.

Bola maqsadga (oldiga qo'yilgan muammoni yechish) erishish uchun ertak qahramoni, boshlovchi yoki pedagog tomonidan oldiga qo'yilgan o'yin usulidagi sahnalashtirilgan senariy asosidagi ma'lum bir shartni bajarishi kerak bo'ladi. Bolaga berilayotgan shartlar ta'limiy ahamiyatga ega bo'lishi va uning ijodiy yaratuvchanlik qobiliyatini rivojlantirishga yordam berishi kerak. O'yinda bola yoki bolalar guruhi tomonidan birinchi shart bajarilgandan keyingina keyingi bosqichga o'tiladi. Keyingi bosqichga o'tish uchun esa biron - bir harakatni amalga oshirish yoki kalit topish talab etiladi. Bu texnologiya bolalarda ta'limiy jarayonni o'yin- sarguzasht faoliyati orqali bilishga qiziqtirish , o'z ichki imkoniyatini ko'rsatib berish ehtiyojlarini o'stirishga qaratilgan.

Shuni ta'kidlash joizki, bolalarda qahramonliklar qilish, muammolarni mustaqil hal etish, shaxsiy jasorat ko'rsatish xislari erta uyg'onadi. Kvest-sarguzashtlardagi qaxramonlarning rolini bajariy bolalarda zavq- shavq uyg'otadi.

Kvestlar bolalarga tajriba qilish, yangi bilimlarni tahlil qilish, ularni ma'lum bir belgi asosida birlashtirish, kommunikativ ko'nikmalarini rivojlantirish va ijodiy qobiliyatlarini o'stirish imkonini yaratadi. Maqsadga erishish uchun bolalar bir biriga bog'langan ma'lum bir topshiriqlar, jumboqlar, mashqlar yoki topishmoqlarni izchillik bilan, ketma ketlikda bajarishlari kerak bo'ladi.

Kvest o'yinlarning maqsadi bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, ularning atrof-olam haqidagi bilimlarini, dunyoqarashini o'stirish, muammoli vaziyatlarga mustaqil yechim toppish hamda kommunikativ laqatlarini rivojlantirishdan iboratdir.

Kvest o'yinlarni muvaffaqiyatli tashkil etish va o'tkazishning asosiy sharti bu – bolaning individual rivojlanishi, yosh xususiyati va imkoniyatlarini xisobga olgan holda aniq mazmunli, topshiriqlarni ishlab chiqish va sharoitni yaratishdir. Jamoa bo'lib topshiriqlarni bajarishda bola o'zini shu jamoaning ajralmas bir bo'lagi ekanligini, o'zining jamoaga kerakligini sezib turishi, o'ziga ishonishi va mustaqillikni deb xis qilishi kerak.

Kvest o'yinlar davomida bolalarda quyidagi masalalar hal etiladi:

- Ta'limiy - har bir bolani faol ijodiy jarayonga jalb etish;
- Rivojlantiruvchi - qiziqishni, ijodiy qobiliyatni, faol izlanish, tadqiq qilish, yangilikka intilishni o'stirish, hayol jarayonini rivojlantirish;
- Tarbiyaviy - topshiriqlarni bajarish davomida bag'rikenglik, javobgarlikni sezish, shaxsiy ma'suliyatni xis qilish.

Bolalarning ijodiy qobiliyatlarini kvest o'yinlar orqali rivojlantirishning yonalishlari:

- Bolalarda estetik dunyoqarash va ijodiy izlanishni rivojlantirish;

- Turli materiallardan, shu jumladan konstruktor, modul, qog'oz, tabiiy va boshqa materiallardan qurish-yasash;
- Tasviriy (chizish, loydan yasash, applikatsiya);
- Musiqiy (musiqiy asarlarning ma'nosini idrok etish va tushunish, qo'shiq aytish, musiqiy va ritmik harakatlar, bolalar cholg'u asboblariida chalish);

-Ijodiy fikrlash jarayonini o'stirish;

- Olingan bilim va ko'nikmalardan turli hayotiy vaziyatlarda o'z ijodiy rejalarini tuzish va tatbiq qilish uchun foydalanish malakasini rivojlantirish;

- Insonning dunyoni o'zgartirishdagi yaratuvchanlik rolini tushunish;

-Jamoada ishlash orqali kommunikativ layoqatni tarbiyalash.

Kvest o'yinlarni qo'llahd quyidagi usullardan foydalaniladi;

1. O'yin-kulgini dinamik(doimiy o'sib borish) olib borish, ishtirokchilarni e'tiborini chalg'imaslik.

2. Savollar, o'yin topshiriqlardan qo'llab passiv yoki o'yinda o'z faolligini ko'rsatmaydigan bolalarni jalb etiladi.

3. O'yin vaqtiida noverbal usullar yordamida intizomni saqlanadi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'tkaziladigan kvest o'yinining davomiyligi odatda mujassam mashg'ulot sifida tashkil etiladi va u quyidagi davomiylikdan iborat bo'ladi:

- maktabgacha yoshdagi kichik bolalar uchun 20- 25 daqiqa;

-o'rta guruh tarbiyalanuvchilari uchun 30 - 35 daqiqa;

- katta maktabgacha yoshdagi bolalar uchun40-45 daqiqa

Kvest oyinlarning quyidagi tiplari mavjud:

1.To'g'ri chiziqli- jumboq va topshiriqlar bir mantiqqa bog'langan holda tizimlashtirilgan bo'ladi.

2.Xujumkorlik pozitsiyali- jamoalar topshiriqlar beriladi, lekin maqsadga erishish yo'lini ularning o'zlari belgilaydilar.

3.Aylana chiziqli – to'g'ri chiziqli kvestlarga o'xshab ketadi, lekin jamoalar turli nuqtadan yakuniy maqsadga turli yo'nalishlarda boradilar.

Kvest o'yinlari o'ziga xos ketma ketlikda va izchillikda o'tkaziladi. Kvest o'yinlarining o'tkazish etaplari;

1.Kirish- pedagogning o'yin haqidagi kirish so'zi, u bolalarni o'yin jarayoniga jalb qiladi, ularni qiziqtiradi, yo'naltiradi, kutilayotgan faoliyatga e'tibor qaratish. Masalan, o' yinning muammosi sifatida dev yakshanbani o'g'irlab qo'yishi, bilimlar kalitining yo'qolib qolganligi, Zumradga Sehrigar momo tomonidan berilgan sandiq yoqolib qolganligi berilishi mumkin. Bu yerda bolalar o'zlari kichik tergov o'tkazishlari, o'rganish ishlarini tashkil etishlari mumkin. Kvestning mazkur bosqichi:

* bolalarni jamoalarga taqsimlash;

*qoidalar bilan tanishish;

* illyustratsiya, sxema ko'rinishidagi o'yin shartlarini bajarish uchun xarita, bukletlar beriladi.

Asosiy qism- o'yinning to'siqlarni yengib o'tish, muammoli vaziyatlarni hal etishda asosiy shartlar, jumboqlarni bajariladigan qism. Bu qismda simmulyatsiya tariqasida o'yin jarimalari va rag'bat(bonus)lari berilishi mumkin.

Yakuniy qism- oyinni xulosalash, xarakatlarni tahlil qilish, g'olib jamoani taqdirlash, fikr almashish jarayoni.

Kvest o'yinda qo'llaniladigan yo'nalishli topshiriqlarning ko'rinishi quyidagicha ko'rinishda bo'lishi mumkin.

1.Qog'ozli shaklli. Manzilning yo'nalishi jumboq, boshqotirma, kodlangan so'z, rebus shaklida beriladi.

2."Sehrli o'ram". Ipga manzilga borishning ketma ketligi yopishtirilib qo'yiladi.

3.Xarita. Manzilga borish yo'nalisi sxema tarzida ko'rsatiladi.

4."Sehrli ekran". Bolalar borishlari kerak bo'ladigan manzil suratlar, rasmlar ko'rinishida planshetga yopishtirilgan bo'ladi.

5."Izlar". Manzilga boorish yo'nalishi strelaka yoki oyoq izlarini yopishtirish orqali beriladi. Yoki bir topshiriqni bajargandan keyin keying topshiriqqa o'tish o'simlik yaprog'iga yashiringan bo'lishi mumkin.

6."Sirli joy". Topshiriqni sharti quticha, kapsula ko'rinishida biron joyga yashirib qo'yilishi, uni toppish uchun jumboqni yechish kerak bo'ladi.

7."Sehrli monitor". Monitorida Laylakvoy bolalarga jumboqlarni yechishga yonaltiruvchi haritani ko'rsatishi mumkin.

Kvest o'yinlarni o'tkazish uchun tahminiy topshiriqlar:

1."Krossvord- boshqotirma". Bolalar jumboq so'zni topishadi. Katakda birinchi so'z – yordamchi(yo'naltiruvchi) so'z bo'ladi.

2."Pazl yig'ish". Yig'ilgan rasmlar qaysi tomonga harakat qilish kerakligini ko'rsatadi. Masalan, bolalar muzlatgichning rasmini topadilar, demak oshxonaga borishlari kerak.

3."Labirintlar". Uzun arqonlar o'rtasida yurish kerak yoki yumshoq to'qima qismlaridan qurilgan tunnelni bosib o'tish kerak bo'ladi.

4."Ko'zgu". Harflar kuzkuda o'z aksini topadi, bolalar so'zni topib, keyingi ishora ularni kutayotganini anglaydilar.

5."Nima ortiqcha?" Bolalarga predmetli rasmlar taklif etiladi.Ularga ortiqcha predmetni aniqlash beriladi. Bu so'z yordamchi(yo'naltiruvchi) so'z bo'ladi.

6. «Hikoya tuzing». Ikki jamoa asosiy sxema, rasm yoki jadval asosida hikoya tuzadilar. Masalan, bitta jamoa bahor haqida bir hikoya, qish haqida esa yana bir jamoa hikoya tuzadilar. Bu yerda emblemada gulchambar va qorni rasmi tasvirlangan bo'ladi.

7."Moychechak".Yetti gul yaproqli gul beriladi. Gulning markazida, aylana markazida «V» tovushi, barglarda rasmlar chizilgan. Vazifa: "V" tovushi ishtirok etgan rasmlarni topish kerak bo'ladi.

Kvest o'yinlarini tashkil etish tamoyillari:

1. Bolaning huquqi, individualligi va rivojlanish imkoniyatlarini hisobga olish. Barcha bolalar katta imkoniyat egasi bo'lib dunyoga keladi va har biri tug'ma iste'dodga ega. Har bir bola o'ziga xos individualdir. Barcha bolalar o'z salomatligi va farovonligini himoya qilish, mustahkamlash, shuningdek, sifatli maktabgacha ta'limdan teng foydalanish huquqiga ega.

2. Bolaning sog'lig'ini saqlash, mustahkamlash va xavfsiz muhitni ta'minlash. Bolaning turli ehtiyojlarini, shu jumladan, harakatga bo'lgan ehtiyojini qondirish; faol o'yinlar va kundalik jismoniy mashqlar orqali bolalar o'zlarining his-tuyg'ularini, yirik va mayda motorika ko'nikmalarini rivojlantiradilar; harakatda atrof-olamni o'rganadilar va turli predmetlarni boshqaradilar; o'z tanasining ta'sir va imkoniyatlarini farqlay oladilar, unga g'amxo'rlik qilishni va sog'lom turmush tarzini qabul qilishni boshlaydilar.

3. Maktabgacha ta'lim tashkilotining oila, mahalla, maktab bilan hamkorligi. Bolaning farovonligi uning oila a'zolari va yaqinlarning maktabgacha ta'lim tashkilotining ahamiyatini tushunishiga bog'liq. Ota-onalar va mahalliy hamjamiyat o'quv dasturida ta'lim va tarbiya jarayoniga qatnashishga jalb qilinganda va o'z hissasini qo'shganda bolalar yaxshiroq ta'lim oladilar va rivojlanadilar.

4.Izchillik tamoyili.

5.Dinamiklik. Oddiydan murakkabga qarab o'sib borishlik

6.Emotsional quvonchga yo'g'rilganlik tamoyili.

7.Vaqtini to'g'ri tanlash tamoyili.

8.Integratsiyalashganlik tamoyili.

9.Yakuniy natijani aniqligi tamoyili. Qaytar aloqa vaqtida bolaning kerakli bilimlarni egallaganligiga, zaruriy bilim, malaka va ko'nikmalarni o'zlashtirganligi.

Qo'llaniladigan metodlar:

1.O'g'zaki metod.

2.O'yinli metod.

3.Amaliy metod.

4.Ko'rgazmalilik metodi.

5.AKTni qo'llash metodi.

Xulosa shuni aytish mumkinki, maktabgacha yoshdagi bolalarda ijodiy qobiliyatni rivojlantirish xamma vaqt ham dolzarb bo'lib kelgan. Chunki ijodkor shaxsgina jamiyatda islohotlar qila oladi, ulari farovon hayotga yetaklaydi. Bunday fazilatlar esa bolaning ilk davridan boshlanadi. Ta'lim-tarbiya jarayonida turli hil texnologiyalardan foydalanish esa maktabgacha yoshdagi bolalarda ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishda asosiy shartlardan biri bo'lib xizmat qilishi kerak.

Shuni esda tutish kerakki, har bir bola noyob, o'ziga xos tarzda iqtidorli sanalib, unung ko'nikma va qobiliyatlarini rivojlantirish jarayoniga qanchalik ko'p qiziqish bildirsa, bolaning kelajakda yetuk shaxs bo'lish va zamonaviy jamiyatga osonlik bilan moslashish, unda muvaffaqiyat qozonish imkoniyati shunchalik yuqori bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

- 1.М.И. Матюлевич. Квест-игра по профориентации для учащихся 5-7 классов. «Профессии вокруг меня» М.И. Матюлевич П -2020г.стр.3-4
- 2.Егорова И.В.Квест игры . Методические рекомендации. М -2020 г. Стр. 6-8
- 3.Протасова О. Квест – игра «Пятый элемент». Поисково-познавательная игра в форме экспериментальных действий.М-2020. стр-8-9
4. Лернер И. Я. Дидактические основы методов обучения .М.Педагогика, 1981. – 116 с.
- 5.Urmonova T.I. Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda ijodiy qobiliyatni rivojlantirish texnologiyalari(Kvest texnologiyasi misolida) International Conference on Medikal Science, Medicine and Public Health E CONFE SERIES. Indonesia.Jakarta.2025 y.30.03.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARGA TA'LIM-TARBIYA BERISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI

O'zbekiston. Safarov Sohibjon Zokirovich
Navoiy pedagogika texnikumi
(O'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari)

Annotatsiya. Ushbu maqolada maktabgacha ta'limning zamonaviy tendensiyalari, innovatsion texnologiyalar, STEAM ta'limi, inklyuziv ta'lim, erta rivojlanish metodlari, ota-onalar bilan hamkorlik, ta'lim sifatini baholash va xulosa-tavsiyalar xususida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: Tendensiyalari, innovatsion texnologiyalar, STEAM ta'limi, inklyuziv ta'lim, erta rivojlanish metodlari, interaktiv o'yinlar, virtual ta'lim.

Аннотация. В данной статье рассматриваются современные тенденции в дошкольном образовании, инновационные технологии, STEAM-образование, инклюзивное образование, методы раннего развития, сотрудничество с родителями, оценка качества образования и выводы.

Ключевые слова: тенденции, инновационные технологии, STEAM образование, инклюзивное образование, методы раннего развития, интерактивные игры, виртуальное образование.

Abstract. This article examines current trends in preschool education, innovative technologies, STEAM education, inclusive education, early development methods, collaboration with parents, quality assessment, and conclusions.

Keywords: trends, innovative technologies, STEAM education, inclusive education, early development methods, interactive games, virtual education.

Kirish. Ta'lim sifati ustuvorligi ta'lim siyosatining asosi sifatida maktabgacha ta'lim muassasasidan boshlab, ta'lim tizimining barcha bosqichlarida boshqaruvning samarali mexanizmlarini yaratish muammosini nihoyatda dolzarb qilib qo'yadi. Maktabgacha yoshdagi bolaning har tomonlama rivojlanishi, unda "komil inson" asoslarini shakllanishi va yuzaga kelish davri – noyob davr deb belgilanganligi tufayli maktabgacha ta'lim, ayniqsa muhim rol o'ynaydi.

Ta'limda innovatsion texnologiyalar.

Maktabgacha ta'limda texnologiyalar roli tobora oshib bormoqda. Raqamli resurslar va interaktiv o'yinlar bolalarni o'rganishga jalb qilish va ularning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish

Z.T.Qoraboyeva Maktabgacha ta'lim sohasida raqobatbardosh kadrlarni maqsadli va uzluksiz tayyorlash masalalari.....	75
M.A.Aslova, D.I.Raxmatova Katta va maktabgacha tayyorlov guruhlarida ertalabki gimnastikani o'tkazish metodlari va ularning ahamiyati.....	78
N.K.Musayeva, S.M. Muxammadova O'zbekistonda nodavlat mttlarining tashkil topish tarixi.....	80
M.F.Jumayeva Maktabgacha yoshdagi bolalarda tasviriy xotirani mustahkamlashda zamonaviy dasturiy vositalarning o'rni	84
M.R.Sattarova Maktabgacha ta'limning innovatsion rivojlanish strategiyalari.....	85
N.K.Musayeva, M.R.Nishonova, S.M.Kamoljonova Maktabgacha ta'limning innovatsion rivojlanish strategiyalari.....	87
T.I. Urmonova, D.Hayitmonbetova Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishda innovatsion texnologiyalardan foydalanishning samaradorligi.....	90
S.Z.Safarov Maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim-tarbiya berishning zamonaviy tendensiyalari.....	94
M.A.Jumayeva Maktabgacha ta'lim tashkilotining tashkiliy va me'yoriy asoslari.....	98
X.I.Tosheva Yangi o'zbekistonda maktabgacha ta'limni rivojlantirishning asosiy tamoyillari.....	100
D.N. Xudoyarova, M.M.Shermurotova Integrated approach and innovative strategies in preschool education.....	102
Sh.T.Uraqova, S.T.Qurbonova, J.N.Maxmanazarov, S.J.Shoniyoov Maktabgacha ta'limning innovatsion rivojlanish strategiyalari.....	104
N.G.Meyliyeva, Sh.IIhomova Maktabgacha ta'lim - uzluksiz ta'limning asosi: zamonaviy yondashuvlar va rivojlanish istiqbollari.....	106
N.S.Suvanova, S.A.Ro'ziyeva Maktabgacha ta'limning innovatsion rivojlanish strategiyalari	108
D.H.Ismatova Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalar turizmi va uning ahamiyati.....	110
N. Yorkulova, S.Saidova Managing large preschool classes: strategies for effective language teaching	114
Z.A.Fayzullayeva, Sh.A. Ro'ziqulova Maktabgacha ta'lim muassasalarida interfaol usullar yordamida o'qitishning o'ziga xos tomonlari	117
H.III.Omova, L.P.Tagaeva Инновационные стратегии развития дошкольного образования.....	118
Y.G.Ravshanova Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida "aqlli" gadgetlar asosida o'yinlar tashkil etish texnologiyalari.....	120
Sh.B.Fayzullayeva Maktabgacha ta'lim tizimida innovatsion texnologiyalardan foydalanish.....	124
M. Sobirova, S.Saidova The use of stickers in teaching english as a foreign language: a motivational tool or a potential pitfall?.....	125
M.X.Qilichova, O.A. Raxmonberdiyeva Maktabgacha ta'limning innovatsion rivojlanish strategiyalari.....	129
M.Mustafoyeva, D. Abduhakimova Maktabgacha ta'limning innovatsion rivojlanish strategiyasi.....	132
Sh.Sh.Doniyorova, F.Turdiyeva Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarining ta'lim jarayonida axborot texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati.....	135
N.A.Xabibullayeva Elementar matematik tasavvurlarni shakllantirish mashg'ulotlarida innovatsion yondashuvning mohiyati.....	137
D.I. Eshmuminova Bo'lajak tarbiyachilarni innovatsion pedagogik faoliyatga tayyorlash texnologiyalari.....	140